



CIVIL SOCIETY AS A DEVELOPMENT OF NATIONAL DEMOCRACY

Eshmurodov Nodirbek Ilhom o'gli

TDTrU. Civil Engineering, 1st Year Student, Student of Group BI -5-25

Email address: eshmurodovnodirbek7@gmail.com

Phone: +998973223242

Kushakov Fayzulla Abdullaevich

Scientific Supervisor, Associate Professor of the
Department of "Social Sciences" of TDTrU, Acting

Email address: kushakovfayzullo@gmail.com

Phone: +99897 777 25 83

Abstract

This article presents a scholarly analysis of the origin and development of civil society. It examines how the concept of civil society is reflected in the consciousness of its members, their awareness of their rights and duties, and the creation of conditions for their active political participation. The role and significance of non-governmental non-profit organizations in the lives of community members are also explored.

Keywords: Civil society, duty, obligation, non-governmental non-profit organizations, public figure.

Introduction

FUQAROLIK JAMIYATI – MILLIY DEMOKRATIYANING RIVOJI SIFATIDA

Eshmurodov Nodirbek Ilhom o'g'li

TDTrU. Qurilish muhandisligi. 1-kurs talabasi BI -5-25 guruh talabasi

Elektron adres: eshmurodovnodirbek7@gmail.com

Telefon:+998973223242

Ilmiy rahbar: Kushakov Fayzulla Abdullaevich.

TDTrU «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi dotsent v.b.

Elektron adres: kushakovfayzullo@gmail.com

Telefon: +99897 777 25 83



Annotatsiya:

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatini kelib chiqishi, rivojlanish dinamikasi ilmiy tahlil qilingan. Fuqarolik jamiyatini tushunchasini jamiyat a'zolarining ongida terak aks etishi, o'z huquq va majburiyatlarini anglashi, siyosiy faol faoliyat olib borishi uchun sharoitlarni yaratilishi o'rganilgan. Jamiyat a'zolarining hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati isloh qilingan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, burch, majburiyat, nodavlat va notijorat tashkilotlar, jamoat arbobi

Аннотация:

В данной статье представлен научный анализ происхождения и динамики развития гражданского общества. Рассмотрено отражение концепции гражданского общества в сознании его членов, осознание ими своих прав и обязанностей, а также создание условий для их активной политической деятельности. Раскрыты роль и значение негосударственных некоммерческих организаций в жизни членов общества.

Ключевые слова: гражданское общество, долг, обязанность, негосударственные некоммерческие организации, общественный деятель.

KIRISH

O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishishi, xalqimizning ijtimoiy adolat, milliy qadriyat, insonparvarlik va ezgulik tamoiyillariga asoslangan, yuksak ma'naviyat va ma'rifatli jamiyat qurish imkoniyati paydo bo'ldi. Mamlakatimizda olib borilgan siyosiy isloxlarning zamirida fuqarolik jamiyati qurish, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan siyosiy institut barpo etish zarurati mavjud edi.

Avvalo, "fuqarolik jamiyati" tushunchasiga, unga falsafiy, siyosiy-ijtimoiy qarashlar haqida qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Chunki, fuqarolik jamiyatiga doir ilk tadqiqotlar ko'p asrlar oldin boshlanganiga qaramasadan, mazkur tushuncha muayyan darajada shartlilik va uni ifodalashdagi xilma-xilligi bizning kunlarimizgacha saqlanib kelmoqda. Sababi, inson hech bir vaqt erishilgan yutuq, natija, kashfiyot bilan cheklanib qolmagan, u ob'ektiv voqelik ta'sirida yangi-yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezib yashaydi.



“Fuqarolik jamiyati” kategoriyasi insoniyat taraqqiyotining har bir davrida mutafakkirlarning aql-idroki, erkinlik, faravonlik adolat hukm suradigan ideal ijtimoiy tuzum modelini yaratish yo‘lidagi intilishlari bilan tavsiflanadigan alohida bir voqelikni aks ettiradi. Fuqarolik jamiyati tarixan ideal model bo‘lib kelgan va uni mutafakkirlar tavsiflashga intilishgan.

Jamiyat hech qachon o‘z-o‘zicha shakllanmagan, uni har doim inson yo‘naltirib borgan. Fuqaro - bu siyosatchi yoki jamoat arbobi funksiyasini ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olgan, barcha muhim ijtimoiy masalalarni muxokama qilish va hal etishda erkin holda, boshqalar bilan birgalikda ishtirok etadigan, nafaqat xususiy, balki jamoa manfaatlarini ko‘zlab yashovchi kishidir. Erkin, o‘z huquq va burchlarini idrok etadigan, ularni manfaatlari bilan muvofiqlashtirib yashaydigan ozod kishilar fuqarolik jamiyatining negizidir. Ular biladiki xalqda bir yaxshi naql bor-“sen siyosat bilan shug‘ullanmasang, ertami kechmi siyosat albatta sen bilan shug‘ullanadi”.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning, ixtiyoriy nodavlat institutlarining va nodavlat munosabatlarining majmuidir. Shundan kelib chiqqan xolda, fuqarolik jamiyatining siyosiy-falsafiy va ijtimoiy-huquqiy xususiyatlarini quyidagilarda aks etadi:

- Jamiyat faoliyati va taraqqiyotining xususiy mulkchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati bilan uyg‘unligini;
- Barcha mulk shakllari ravnaq topishining davlat, qonun tomonidan kafolatlanishi. Mulchilik munosabatlarida plyuralistik qarashlarni shakllantirish;
- Fuqarolarning huquqiy tengligi, qonun ustuvorligi, sud tizimining fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish institutiga aylanishi;
- Fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlat tomonidan noqonuniy aralashuvi yoki asossiz ta‘ziq o‘tkazishini cheklash;
- Davlat hokimiyati boshqaruv tizimida shaxsning mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;
- Davlat, davlat institutlari va fuqarolar huquqining teng sub’ekt sifatida tan olgan holda, fuqarolar huquqlarining kafolatlash va qonun ustuvorligini ta‘minlovchi mexanizmni mavjudligi;
- Fuqarolarning ijtimoiy institutlarni shakllanganligi va ularning to‘laqonli faoliyat yuritishi;
- Jamiyatda yuksak ma‘naviyat-madaniy muhit shakllanganligi, inson qadri, sha‘ni oliy qadriyat sifatida tan olinishi.



Ushbu xususiyatlar mutlaq ideal yoki ijtimoiy-utopik qarashlar maxsuli emas, mustaqillik yillarida davlatimiz belgilab olgan strategik maqsad, tamoiyillar ularni real voqelikka aylantirish kafolatlari bo‘lib xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning kuchli davlat barpo etish va kuchli davlat tarkibida kuchli jamiyatni shakllantirishga qaratilgani fuqarolik jamiyatini real voqelikka aylantirmoqda. Demak, jamiyat teng huquqli, erkin va farovon hayot, har bir fuqaroning mulkchilik munosabatga kirishi, o‘z manfaatlarini qonuniy tarzda ximoya eta olish imkoniyati yaratilishi, ma’naviy va madaniy muxit yaratib berishilishi bilan muximdir. Ushbu jamiyatni barpo etishning sharti esa kuchli demokratik davlat barpo etishdir.

Jamiyat davlatning maqomini belgilaydi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatini shakllantirgan huquqiy davlat fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy extiyojlarini qondiruvchi, huquqlarini himoya qilgan xolda, orzu-maqсадlarini ro‘yobga chiqarishda yuridik jihatdan kafolangan institut sifatida katta sahnaga chiqishi lozim.

Fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurish konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaraganda davlat va jamiyatning inson faoliyatiga nisbatan roli:

- insonni ijtimoiy-siyosiy hamda manaviy-madaniy meyorlarga itoat ettirish, uning faoliyati va xatti-harakatlarini ijtimoiylashtirish;
- fuqarolarning intilishlariga, say-harakatlariga ratsionallik, anglanganlik, uyushqoqlikni tashkil etish;
- inson manfaatlari va irodasining rang-barangligini saqlab qolgan holda uni umumiy irodaga, qonunlarga bo‘ysunishini ta’minlash.

Jamiyat va davlatning o‘rtasidagi bog‘liqlik inson va inson qadri tushunchasiga nisbatan bo‘lgan munosabatlari bilan belgilanadi. Jamiyat va davlat kamdan-kam javxalarda inson va uning qadri muammosida ayni bir yakdillikda bo‘lishadi. Asosan bunday holat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatda aks etadi. Huquqiy davlatning asosiy vositasi qonun va demokratiya xisoblanib, ularning ikkalasi ham xalq manfaatlari uchun olib boriladigan siyosiy usul va vositalar xisoblanadi.

XULOSA

Qonun ham demokratiya ham aholini davlatga bo‘lgan ishonchini oshirib, fuqarolik jamiyatini o‘zagi tashkil etadi. Fuqarolarning huquqlari tengligini ta’minlash, nafaqat fuqarolik jamiyatining belgisi, balki huquqiy demokratik davlatning ramzi



hamdir. Zero, huquqiy demokratik davlat qoshidagi xokimiyatlarning(qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) tizimli tarzda bir-birini taqazo etib borishi, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ko'rsatuvchi vositadir. Fuqarolarning davlat tomonidan chiqarilayotgan qonun va qarorlardan bevosita xabardor bo'lishi, qonunlarni qabul qilinishida ularning ishtiroki ta'minlanishi, mavjud qonunlarni buzilishi oqibatida belgidangan jazo turlari tayinlanishidagi ishtiroki va nazorati huquqiy demokratik davlatning o'z fuqarolari oldidagi shaffof siyosiy faoliyatidan darak berib turadi.

References

1. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi. - T.:“O‘zbekiston”.2022.y - 235.b.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi Qonuni Toshkent sh., 2021 yil 5 iyul,O'RQ- 699-son.
4. Ф.А.Кушаков. Перспективы развития современной философии техники. Academic research in educational sciences, 2022. 50-54. с.